

***Murotov Alisher Ergashaliyevich***

***O‘rinova Gulmira Yunusaliyevna***

***Ro‘zmatov Akmaliddin Abdumo‘minovich***

*Dang‘ara 1-son kasb-hunar maktabi o‘qituvchilari*

***Annotatsiya:*** *Maqolada XIX asr birinchi choragida Qo‘qon xonligining Rossiya bilan olib borgan diplomatik aloqalari xususida so‘z boradi. Shuningdek, unda Qo‘qon xonligi va Rossiya davlatlarining elchilik munosabatlarini turli aspektlarda tahlil etishga harakat qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qo‘qon xonligi, Rossiya, diplomatik aloqalar, elchilik munosabatlari, elchilar, savdo-sotiq.*

Bugungi kunda milliy davlatchilik tarixining muhim masalalaridan bo‘lgan tashqi siyosat va diplomatik munosabatlar tarixini xolisona o‘rganish va undan tegishli xulosalar chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

XVIII asr boshlarida O‘rta Osiyoda Qo‘qon xonligi vujudga kelgach, mustaqil davlat belgisi sifatida qo‘shni davlatlar bilan faol tashqi siyosat olib boradi. Bu davlatlar qatoriga Buxoro va Xiva xonliklari, Xitoy, Eron, Hindiston, Qozoq sultonliklari, Turkiya va Rossiyani kiritish mumkin. Biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari XIX asrning boshlaridan e‘tiboran kuchaydi .

Manbalarda Qo‘qon xoni Olimxon 1804 yilda O‘rta Qozoq O‘rdasidagi Qora Kesak volostining sultoni Bukey orqali rus xukumatiga murojaat qilib, Rossiya va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi savdo aloqalarini Toshkent orqali olib borish uchun uning hokimini ko‘ndirish kerakligini iltimos qiladi[1.37-b]. 1809 yilda Toshkentni Qo‘qonga qo‘shib olinishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Har ikki davlat o‘rtasidagi elchilik va savdo aloqalarida Toshkent muhim o‘rin egallagan. Olimxon shu davrdan e‘tiboran Toshkentdan G‘arbiy Sibir orqali rus davlatiga

boradigan karvon yo'llari orqali Qo'qon elchilarini rus davlatiga yuborishga harakat qilgan. Buning tasdig'i sifatida Olimxon Toshkentdan Rossiyaga qaytayotgan rus savdogarlari bilan birgalikda toshkentlik Rahmatullaboy boshchiligida o'z elchilarini Petropavlovskka yuboradi. U elchilar orqali Sibir ma'muriyatiga savdo aloqalarini rivojlantirishni taklif etadi. Keyingi 1910 yilda Sibir liniyasi boshlig'i general-leytenant Glazenap o'zaro savdosotiqni rivojlantirish taklifi bilan Qo'qonga Sulton ismlik o'rta juz sultonlaridan birini yuboradi. Glazenapning o'zaro savdo aloqalarini rivojlantirish haqidagi taklifi Qo'qonda hayrixohlik bilan kutib olinadi. Chunki, O'rta Osiyoda yirik xonlik hisoblangan Qo'qon bozorlarida Rossiya mollariga talab kuchli edi[2.59].

Ayni bir vaqtda Rossiyada Qo'qon xonligi mollari uchun ham talabchan bozor mavjud edi. SHuning uchun ham har ikki tomon bir-birlariga elchi yuborib turganlar. 1811 yil aprelda Sibir orqali tarjimon Mamedyarov boshliq rus vakillari Toshkentga keladilar. Bular savdoga doir masalalarni o'zaro kelishib olish uchun Qo'qon xonidan Rossiyaga elchilar yuborishni so'raganlar. Rus elchilarining taklifiga javoban 1812 yilda Qo'qon xoni Umarxon Shakurbek Otaliq boshchiligidagi o'z elchilarini Rossiyaga yuboradi. 1812 yilning fevralida Peterburgda Qo'qon elchilarini rus imperatori qabul qiladi. Elchilar boshlig'i Shakurbek o'z xoni nomidan imperatordan Sibir shaharlari orqali o'zaro savdoni kengaytirish va xonlik savdogarlarini Rossiya shaharlarida erkin ravishda savdosotiq qilishlariga ruhsat berishini so'ragan. Qabul marosimi yuqori saviyada o'tgan. Imperator Qo'qon elchilari talablarining bajarilishini ma'lum qilgan[3.336-b].

Qo'qon xonligi bilan aloqalarni davom ettirish maqsadida rus xukumati 1813 yilda o'z vataniga qaytayotgan Qo'qon elchilari bilan birgalikda Filipp Nazarovni Qo'qonga yuboradi. Filipp Nazarovning ma'lumotlariga qaraganda, 1812 yilda Qo'qondan ikki kishidan iborat Rossiyaga elchilar yuborilgan bo'lib, ulardan biri kasallanib Petropavlovskda vafot etgan. Ikkinchisi esa o'sha joyga surgun qilingan rus soldati bilan tanishgan. Bu soldat elchining pul va narsalarini olish uchun uni o'ldirgan. Ana shu ko'ngilsiz voqeani tushuntirish uchun Sibir

liniyasi korpusi komandiri tomonidan Filipp Nazarovni Qo‘qon xonligiga yuborilgan edi.

Shuningdek Nazarovning xotira yozuvlaridan ma’lum bo‘lishicha, unga Qo‘qonga Sibir orqali olib boradigan yo‘llar, yo‘l ustidagi shaxar va qishloqlar, xonlikning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, uning mudofaa salohiyatini kuzatish ham yuklatilgan. Qo‘qon elchisi Petropavlovskda o‘ldirilgan bo‘lishiga qaramay, rus elchilarini xon va uning amaldorlari tomonidan hamma elchilik qoidalariga muvofiq hurmat va izzat bilan qarshi olinadi. Nazarov rus hukumati tomonidan xon Umarxonga yo‘llagan yorliq va esdalik sovg‘alarini topshiradi. Elchilarga izzat ikrom ko‘rsatiladi. SHu bilan birgalikda F. Nazarovning Sibir orqali Rossiya bilan xonlik o‘rtasidagi savdo yo‘lini ochishga kelganligi sababli bahorda rus davlatiga boruvchi karvonlar bilan birgalikda o‘z vataniga qaytish maqsadga muvofiq deb ko‘rsatildi. SHunday qilib F.Nazarov elchilik faoliyati Qo‘qon elchilarining o‘limi sabablarini Rossiyada ma’lum qilish va savdo karvonlarini boshqarish bilan chegaralandi, xolos. SHunga qaramay F. Nazarov Qo‘qon xonligi va savdo yo‘llari haqida ayrim qimmatli ma’lumotlar qoldiradi. Bu ma’lumotlarga qaraganda, Qo‘qon xonligi o‘zbek xonliklari orasida salmoqli o‘rin egallagan bo‘lib, Buxoro, Xiva, Turkiston, Xitoy, Afg‘oniston, SHarqiy Turkiston va qolaversa Hindiston, Qashg‘ar va Eron bilan savdo aloqalarini muvaffaqiyatli olib borgan.

Har ikki davlat o‘rtasidagi elchilik aloqalarini o‘rganganda bir jihat diqqatga sazovorki, har ikki davlat elchilik munosabatlarida o‘zaro savdoni rivojlantirish asosiy o‘rinda turgan, harbiy yoki boshqa jihatlardan aloqalar qilish xaqida ma’lumotlar kam, va yana bir jihati Rus davlati dastavval Qo‘qonga savdo sherigi sifatida qaragan bo‘lsa, Filipp Nazarov elchiligidan boshlab, Qo‘qonni harbiy salohiyati, tabiiy boyliklari, qo‘shni davlatlar orasida tutgan mavqeiga ham qiziq boshlagan. Jumladan Rossiya imperatori Aleksandr 1 Rossiyaning Tehrondagi elchixonasida ishlab, juda ko‘p tajriba orttirgan diplomat Aleksandr Fedorovich Negri (1784 – 1854) rahbarligida Buxoroga jo‘natgan rasmiy elchisi orqali amir Haydarga yuborgan yorlig‘ida, shuningdek Rossiya tashqi ishlar vaziri K.V.Nesselrodning A.F. Negriga bergan qo‘shimcha qo‘llanmasida bir qator

topshiriqlar bayon etilgan. Mazkur topshiriqlarning dastlabkisi aynan Qo‘qon xonligiga taalluqli bo‘lib, unda Qo‘qon xonligi ahvolini, uning muzofotlari, tabiiy boyliklari, savdosi, boshqaruvi, xozirgi xokimning xislatlari va xonlikning qo‘shnilari bilan munosabatlarini bilish kerakligi takidlanadi [4.378-b]

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Topildiyev N. Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixidan. T.: “Fan”, 2007 y.
2. G‘afforov F. Rossiya bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar. – T.: 1969 y.
3. Axmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. T.: “O‘qituvchi”, 2001 y.
4. Boboyev H. O‘zbek davlatchiligi tarixi. II. T.: “Fan va texnologiyalar”. 2009 y.